TANADAGI BIOFAOL NUQTALARDAN FOYDALANIB TURLI KASALLIKLARNI TASHXISLASH VA DAVOLASH

Ravshanov Shahzod Alisher o‘g‘li

Qabul qilindi: 24.10.2025
Ko‘rib chiqildi: 25.10.2025
Tasdiqlandi: 26.10.2025

Annotatsiya. Ushbu maqolada ananaviy Xitoy usullaridan biri bo’lgan Igloreflekso terapiya usulining hozirgi kunda pivojlanishi va muommalari haqida ma’lumotlar berilgan. Igloreflekso terapiya usulining asosi bo’lgan biofoal nuqtalardan foydalanib mavjud kasalliklarni tashxislash va davolash mumkinligi to’g’rida atroflicha ma’lumot berilgan.

Iglarefleksoterapiya (IRT) (boshqacha akupunktur deb ataladi) an'anaviy xitoy usullaridan biri bo‘lib, u inson tanasining biologik faol nuqtalariga ingichka ignalarni kiritish yo‘li bilan kasllikni davolash usuli hisoblanadi. Sharq manlakatlari tabiblarining falsafasiga ko‘ra, har qanday kasallik Qi hayotiy energiyaning turg‘unligi natijasida yuzaga keladi. Agar energiya muvozanati tiklanmasa, uni davolash mutlaqo mumkin emas.

Iglarefleksoterapiya ayrim hollarda *akupunktura ham deb nomlanadi.*

Akupunktur nuqtalari tananing shunday nuqtalariki, ushbu nuqtalarni bosish mushaklarning bo‘shashishiga imkon beradi va qon aylanishini yaxshilaydi. Shuningdek, u kimyoterapiyaning bosh og‘rig‘i va boshqa og‘riqlar kabi ko‘plab nojo‘ya ta'sirlarini engillashtirishga yordam beradi.

Ko‘pincha refleksoterapiya usuli bilan davolashda qadimgi xitoylik shifokorlar kanallar yoki meridianlar deb atagan chiziqlarda joylashgan akupunktur nuqtalari qo‘llaniladi. Ularni organlarning nomlari, masalan, o‘pka, yurak, oshqozon, siydik pufagi kabi nomlar bilan belgilashgan. Ushbu tizim bugungi kunda saqlanib qolmoqda, ammo zamonaviy tibbiyotda harf va raqamlardan foydalanib, belgilash ko‘proq qo‘llaniladi.

Elektropunktura - refleksologiyaning yo‘nalishi bo‘lib, unda biologik faol nuqtalar (BFN) ga ta'sir elektr toki yordamida amalga oshiriladi.

Akupressura bilan tananing ma'lum nuqtalariga bosim o‘tkaziladi. Bunday nuqtalar *akupunktur nuqtalari deb ataladi.* Ushbu nuqtalarni bosish mushaklarning bo‘shashishiga imkon beradi va qon aylanishini yaxshilaydi.

Ko‘pincha refleksoterapiya usuli bilan davolashda qadimgi xitoylik shifokorlar kanallar yoki meridianlar deb atagan chiziqlarda joylashgan akupunktur nuqtalari qo‘llaniladi. Ularni organlarning nomlari, masalan, o‘pka, yurak, oshqozon, siydik pufagi nomlari bilan belgilashgan. Ushbu tizim bugungi kunda saqlanib qolmoqda, ammo zamonaviy tibbiyotda harf va raqamlardan foydalanib, belgilash ko‘proq qo‘llaniladi.

Inson organizmi murakkab tizim bo‘lib, unda biofaol nuqtalar (BFN) to‘plami mavjud. BFNning fiziologik xususiyati shundaki, orqa miyaning tegishli qismlari orqali har bir biofaol nuqta ma’lum bir organning bir qismi yoki funktsiyasi bilan o‘ziga xos tarzda bog‘langan bo‘ladi. Agar organ kasallangan bo‘lsa, u holda ushbu organga ma’sul biofaol nuqtalar biofizik parametrlarining normal qiymatlari o‘zgaradi va unga mos keladigan nuqta og‘riqli bo‘ladi. Odatda organ bilan bog‘langan nuqtalar to‘plami "meridian" yoki "kanal" deb nomlanadi. Biofaol nuqtalardan foydalanib, kasallikni tashxislash quyidagilarni aniqlash imkonini beradi:

organlar, meridianlarning holati;

kasallik holatini bashorat qilish;

ultratovush, EKG va shunga o‘xshash tibbiy qurilmalar bilan bog‘liq klinik tekshirish usullari aniqlay olmagan o‘zgarishlarni erta bosqichda aniqlash.

Qadimgi Xitoy tabobotida odam tanasida 1000 dan ortiq BFN mavjudligi va ular 14 ta (shundan, 12 tasi jo‘ftlashgan, ya’ni simmetrik va 2 tasi simmetrik bo‘lmagan, jo‘ftlashgmagan) meridian (kanal)larga uzviy bog‘langan bo‘lib (1-rasm), o‘z biofizik parametrlari normal holatini saqlab turishi, meridianlarora

energiya oqimini bir me'yorda taqsimlanishi inson tanasida sog'lom muhitni shakllantiradi deb ta'rif berilgan [1]. Ushbu meridianlar inson tanasidagi barcha ichki a'zolar bilan uzviy bog'langanligi o'z isbotini topgan.

Biofaol nuqtalardan foydalanib, tashxis qo'yishda shifokorlar BFNda elektr tokining o'tkazuvchanligini (qarshiligini) o'lchaydi. Ushbu o'lchovlar meridianlarning holati va ularga mos keladigan ichki organlar haqida qiziqarli ma'lumotlar beradi.



a) Taloq (oshqozon osti bezi) meridianidagi nuqtalar

b) o'pka meridianidagi nuqtala

1-rasm. Meridianlar bo'ylab biofaol nuqtalarning joylashishi.

Foll usuli elektropunktur tashxis va davolash usuli bo'lib, ushbu usul 1958 yilda nemis shifokori Reynold Foll tomonidan taklif qilingan va amaliyotga joriy qilingan. Mazkur usul qo'l va oyoqlardagi biologik faol nuqtalarning elektr o'tkazuvchanligi hamda bemor organlari va tizimlarining funktsional holati

o‘rtasidagi bog‘liqlikka asoslangan [2]. Foll usuli biorezonanns diagnostikasi kabi yo‘nalishni paydo bo‘lishiga turtki bo‘ldi va mazkur usul inson tanasining elektr qarshiligini o‘lchash natijalariga ko‘ra tashxis qo‘yish uchun ishlatiladi.

Foll usuli bilan tashxislash an’anaviy tashxislash usullaridan oldin kasallangan organni toppish inkonini beradi. Shifokor qo‘l va oyoqlardagi BFNda elektr tokining o‘tkazuvchanligini (qarshiligini) o‘lchaydi. Ushbu o‘lchovlar meridianlarning holati va ularga mos keladigan ichki organlar haqida qiziqarli ma’lumotlar beradi.

Ushbu diagnostik tadqiqot usulining an'anaviy usullardan asosiy farqi uninig noinvazivligidadir. Tananing ichki bo‘shliqlariga kirmasdan natijalarni olish Foll diagnostikasini xavfsizligini ta’minlaydi. Bundan tashqari, uning asosiy afzalligi uning nojo‘ya ta'sirlarining yo‘qligi. Barcha yoshdagi bemorlar Foll usulidan foydalangan holda diagnostik tadqiqot uchun cheklovlarsiz murojaat qilishlari mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. H.M. Heise, R. Marbach, G. Janatsch, J.D. Kruse-Jarres, Determination of Glucose in Whole Blood Attenuated Total Reflection Infrared Spectroscopy,‖ Anal. Chem. 1989: 61, 2009-2015.
2. Portnov F.G. Elektropunkturnaya refleksoterapiya. - Riga: Zinatne, 1987. –352 s.
3. Nakatani Y., Yamashuta K. Riodoraku Akupunkture. Japan. Tokyo. 1977.
4. Huodo M.D. Ruodoraky treatment and objective approach to acupuncture . Amer.Jur. Acupuncture. – 1984. - Vol.12, №3. - pr. 229-238.
5. Djabbarov K.A. Diagnosticheskoe znachenie issledovaniy elektroprovodnosti i biopotentsialov koji u bolno‘x saxarno‘m diabetom. Azerb.med.jurnal. – Baku, 1983. - №9. – str. 28-32.
6. Jonescu-Tirgoveste C., Boyenaru O., Zngrabescu D. Elektric diagnostic in acupuncture. - 1981. - Voll.13. - pr.5-14.
7. Vin T.W. Avtomated approach to meridian-balensing and electro acupuncture instrumention . Amer.j.acupuncture. - 1977. - Vol.5. - pr. 264.
8. XianmingH. Akupuncture. - 1984. - Vol.3. - pr.127-129.

9. Irodov V.A., Irodova N.P. Organizatsiya klinicheskix issledovaniy informativnosti elektricheskix xarakteristik biologicheski aktivno'x tochek dlya diagnostiki i prognozirovaniya i lecheniya. Bionika i biokibernetika - 85: Tez. dokl. Vsesoyuz. konf. – L.: Meditsinskaya kibernetika, 1986. - str. 68-71.

10. Melin A.A., Bo'strov Yu.G. Mnogotochechno'y informatsionno-izmeritelno'y kompleks dlya snyatiya pokazateley s tochek akupunkturo'. Texnicheskie aspekto' refleksoterapii i sistemo' diagnostiki: Sb. nauchno'x trudov KGU. – Kalinin, 1984. - str. 120-121.

11. Lepron P.A . Acupuncture. - 1984. - Voll.2, №2. - pr.10-12.

12. Niboet J.H.E. Complements d' acupuncture. Paris. D.Warlen.1985.

13. Tseung Y.K., Chen C.P. Amer.j acupunct. - 1985. - Voll 9, №1. – rp. 69-72.

14. Viggani B. Riv.ital.acupunctury. - 1985. - Vol.7, №52. – pr. 23-27.

15. Babkin P.S., Zo'kov P.N., Gusev Yu.N., Utesheva O.V. Sposob izmereniya elektricheskogo soprotivleniya v bioaktivno'x tochkax koji. Otkro'to'e izobreteniya. – Moskva, 1980. - №17.

16. Vogralik V.G. i dr. Vozmojnosti iglorefleksoterapii bolno'x saxarno'm diabetom .V sb.: Novo'e aspekto' lechebno-diagnosticheskix metodov pri saxarnom diabete. - Gorkiy, 1987. - str. 111-115.